

**TASDIQLAYMAN**  
**O‘zbekiston Respublikasi**  
**Adliya vazirligi huzuridagi**  
**“O‘zarxiv” agentligi direktori**



**U.Yusupov**  
**2023-yil 28-aprel**

**O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi “O‘zarxiv” agentligi**  
**va tizimidagi tashkilotlarning korrupsiyaga qarshi kurashish**  
**DASTURI**

<b>№</b>	<b>Tashkilot nomi</b>	<b>Korrupsiyaviy xavf-xatarni minimallashtirish bo‘yicha choralar/tadbirlar/tartib-taomillar</b>	<b>Amalga oshirish mexanizmi</b>	<b>Sarflanadigan resurslar (so‘m)</b>	<b>Bajarish muddatlari</b>	<b>Mas’ul ijrochilar (FISH, lavozimi)</b>
1	O‘zbekiston Respublikasi O‘zarxiv agentligi va uning tizimidagi tashkilotlari	O‘zbekiston Respublikasi “O‘zarxiv” agentligiga arxiv ishi va ish yuritish va boshqa yo‘nalishlarda yuklatilgan vazifalarni to‘liq avtomatlashtirish.	1. Funktsional vazifalar ro‘yxatini shakllantirish. 2. Funktsional vazifalarni amalga oshirilganligini onlayn ravishda tahlil qilish imkoniyatini beruvchi tizim yaratish.	60 mln.	2024-yil	Elektron arxivlar va davlat katalogini yuritish bo‘limi,  Korrupsiyaga qarshi kurashish ichki nazorat sektori
2.		Vazirlik va idoralarda arxiv ishi va ish yuritish holati ustidan davlat nazoratini o‘tkazish jarayonini	1. Davlat nazoratini o‘tkazish bo‘yicha axborot tizimini yaratish.	40 mln.	2023-yil IV chorak	Elektron arxivlar va davlat

№	Tashkilot nomi	Korrupsiyaviy xavf-xatarni minimallashtirish bo'yicha choralar/tadbirlar/tartib-taomillar	Amalga oshirish mexanizmi	Sarflanadigan resurslar (so'm)	Bajarish muddatlari	Mas'ul ijrochilar (FISH, lavozimi)
		avtomatlashtirish.	<p>2. Davlat nazoratini o'tkazish bo'yicha savolnomaga muvofiq vazirlik va idoralardan ma'lumotlar to'plash.</p> <p>3. To'plangan ma'lumotlarga ko'ra, onlayn tekshirishlarni o'tkazish.</p>			<p>katalogini yuritish bo'limi,</p> <p>Korrupsiyaga qarshi kurashish ichki nazorat sektori</p>
3.		Agentlik va uning tizimidagi tashkilotlarga xodimlarni ishga qabul qilish, rag'batlantirish, intizomiy javobgarlikka tortish bo'yicha mezonlarni nazarda tutuvchi me'yoriy hujjat ishlab chiqish.	<p>1. Me'yoriy hujjat loyihasini ishlab chiqish.</p> <p>2. Loyihani o'rnatilgan tartibda tasdiqlash va amaliyotga joriy qilish.</p> <p>3. Agentlikning ichki mehnat tartib qoidalariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish.</p>	mablag' talab etilmaydi <i>(mas'ul xodimlarning norma ijodkorligi)</i>	2023-yil IV chorak	Inson resurslari bo'yicha bosh mutaxassis
4.		Boshqaruv xodimlarining belgilangan umumiy soni va mehnatga haq to'lash fond jamg'armasi doirasida Agentlik markaziy apparati, hududiy boshqarmalar va idoraviy mansub tashkilotlarning tasdiqlangan tuzilmasiga o'zgartirishlar kiritishni nazarda tutuvchi me'yoriy hujjat ishlab chiqish.	<p>1. Me'yoriy hujjat loyihasini ishlab chiqish.</p> <p>2. Loyihani o'rnatilgan tartibda tasdiqlash va amaliyotga joriy qilish.</p>	mablag' talab etilmaydi <i>(mas'ul xodimlarning norma ijodkorligi)</i>	2023-yil IV chorak	<p>Moliya va iqtisod bo'limi,</p> <p>Inson resurslari bo'yicha bosh mutaxassis</p>
5.		Agentlik va uning tizimidagi tashkilotlar o'z xodimlariga ularning oylik maoshlari to'g'risida hisobdor bo'lish.	Har oy yakuni bo'yicha, oylik maoshlar to'g'risidagi ma'lumotni har bir xodimga o'z ish haqlari bo'yicha tushuntirish berish.	mablag' talab etilmaydi	Doimiy	<p>Moliya va iqtisod bo'limi,</p> <p>“O‘zarxiv” agentligining</p>

№	Tashkilot nomi	Korrupsiyaviy xavf-xatarni minimallashtirish bo'yicha choralar/tadbirlar/tartib-taomillar	Amalga oshirish mexanizmi	Sarflanadigan resurslar (so'm)	Bajarish muddatlari	Mas'ul ijrochilar (FISH, lavozimi)
						tizimidagi tashkilotlar
6.		Arxivlar mutaxassislarini O'zbekiston Respublikasi korxonalari, muassasalari va tashkilotlari hujjatlarini tartibga keltirishga kompetentligi yuzasidan attestatsiyadan o'tkazish jarayonini avtomatlashtirish.	1. Attestatsiyadan o'tkazish jarayonini avtomatlashtirish bo'yicha texnik topshiriq ishlab chiqish. 2. Attestatsiyadan o'tish, muvaffaqiyatli o'tgan shaxslarga elektron kompetentlik guvoohnoma berishni nazarda tutuvchi tizim joriy qilish.	50 mln.	2023-yil IV chorak	Elektron arxivlar va davlat katalogini yuritish bo'limi,  Korrupsiyaga qarshi kurashish ichki nazorat sektori

**Izoh:** “O‘zarxiv” agentligi direktori tomonidan mazkur dasturda belgilangan vazifalarni o‘z vaqtida bajarilmaganligi va/yoki sifatsiz bajarilganligi uchun mas’ul ijrochilarga qonunchilikda belgilangan tartibda tegishli choralar ko‘riladi.